

THE IMPORTANCE OF USING THE NATIONAL AND SPIRITUAL HERITAGE IN THE EDUCATION OF A DEVELOPED PERSON

Fayziyeva Mutabar Mardonovna

Samarkand region public educators retraining and their qualifications

Teacher of the Regional Center for Development

Annotation.

The rich scientific heritage of Central Asian thinkers and scholars is recognized throughout the world not only for the development of science in the region, but also for the development of world civilization. In particular, the results of the works of Ibn Sina, Beruni, al-Khwarizmi, Farobi and other thinkers have been serving the world's scientists for centuries. The issues of extensive use of this scientific heritage in the upbringing of a harmoniously developed generation are reflected in this article, and the author addresses the culture of the first and second Renaissance in Central Asia. The article also reflects the large-scale reforms being carried out in Uzbekistan today in relation to the upbringing of the younger generation.

Keywords: Renaissance, science, culture, rise, social life, economic life, feudal, education, upbringing, enlightenment, creativity, writer, thinker, Central Asia, Middle East, Middle East, West, Renaissance, Movarounnahr, Khorasan

Markaziy Osiyo xalqlari milliy ma'naviyati takomil bosqichlari bu o'lka xalqlari madaniy taraqqiyot jarayoni bilan bevosita bog'liq. Xalqimiz madaniy taraqqiyoti o'ta murakkab tarixiy hodisalar majmuini tashkil etib, o'z ichiga bir necha ming yilliklarni qamrab oladi. Ana shu murakkab va ko'p ming yillik ma'naviy taraqqiyot jarayonlari milliy ma'naviyatimiz rivojlanishining mustahkam poydevori bo'lib hisoblanadi.

IX-XII asrlar davomida Movarounnahr butun musulmon olamida ilmiy-madaniy jihatdan eng rivoj topgan o'lka sifatida mashhur bo'lib, bu yerda qadimiy an'analar bilan arab, fors, qisman hind hamda qadimgi Yunon ilmiy-madaniy an'analari qorishuvi asosida islomiy falsafiy va tabiiy ilmlar – asronomiya, matematika, tibbiyot, kimyo, dorishunoslik, jo'g'rofiya kabilar rivoj topdi. Bu yerda maxsus hadisshunoslik va islom fiqhshunoslik maktablari shakllanib, tarixshunoslikda ham muhim asarlar vujudga keldi. Bu davr ma'naviyatining muhim tomonlaridan biri shundaki, olim, donishmand, shoirlarning ko'pchiligi qomusiy bilimlarga ega bo'lib, ilmlar bir-biridan ajralmas, uzviy bog'liq holda mavjudligi xarakterli edi. Butun Sharqda bo'lgani kabi Muvarounnahrda ham ilm-fan va ma'rifat sohasida o'z xizmatlari bilan dunyoga mashhur bo'lgan faylasuf va munajjim, matematika, fizika, tibbiyot, tarix, til va adabiyot, pedagogika sohasida ilmiy merosi bilan nom qoldirgan al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi qomusiy olimlar yetishib chiqdi. Ular o'z ilmiy ishlarida axloq-odob masalalariga ham katta e'tibor berdilar. Bulara ilgari surilgan g'oyalar insonning ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamol topishida pedagogik fikr taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shuningdek, Sharq Uyg'onish davrida sof pedagogik asarlar yaratib, ta'lim va tarbiyada inson yetukligining xususiy va umumiy yo'llari haqida o'lmas ta'limoti bilan nom qoldirgan tarbiyashunos olimlar ham maydonga keldi.

IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda tarqalgan va rivojlangan tasavvuf ta'limotlari, oqimlari ham jamiyat ma'naviy hayotining rivoji uchun xizmat etib, uning o'ziga xosligini belgilashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Ma'lumki, G'arb adabiyotlarida Yevropa mamlakatlarida keskin madaniy yuksalishga olib kelgan XV-XVI asrlarni Renessans – Uyg'onish davri nomi bilan yuritadilar. Biroq ko'pchilik mualliflar Sharqda shunday jarayon bo'lganligidan ko'z yumadilar. Holbuki, IX-XII asrlarda Markaziy



Osiyoda Yevropadan bir necha asrlar ilgari madaniy yuksalish yuz berganini hech kim inkor eta olmaydi. U Yevropadagidek yangi siyosiy-iqtisodiy jarayon, ya'ni burjua munosabatlarning vujudga kelishi bilan bog'liq bo'lmas-da madaniyat tarixida o'lmas iz qoldirdi va Yevropa Renessansining vujudga kelishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Davlatimiz aholisini oltmish to'rt foizidan ko'prog'ini yoshlar tashkil etadi. Bu esa yoshlardagi ilmfan, madaniyat, san'at saport sohasida shuncha imkoniyat, salohiyat degani. Ammo bu salohiyat va imkoniyat shunchaki ro'yobga chiqib qolmaydi. Bu imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish ta'lim-tarbiya jarayonida shakllantiriladi va rivojlantiriladi. Bu borada ta'lim sohasida olib borilayotgan keng qamrovli islohatlar bugun o'z samarasini bermoqda. O'zbekistonda inson omiliga e'tibor tubdan ijobiy tomonga o'zgardi ya'ni yuksak bilim saviyaga ega kadrlar, muttahasislarni tarbiyalashda ta'lim-tarbiya uzviyligiga katta e'tibor qaratilib, zarur shart-sharoit va imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Zero, ta'lim-tarbiya ong mahsuli bo'lib, ota-bobolarimiz qadimdan inson kamolati, millat ravnaqiga asosiy omil sifatida ilmu-ma'rifat va ta'lim – tarbiyani e'tirof etganlar, unga amal qilganlar. Bu borada doimo ta'lim-tarbiya uzviyligi, hamohangligi to'g'risida, ahamiyati xususida o'zlarining qarashlarini, fikrlarini bildirib kelganlar.

Xalqimizning boy merosi o'zida ijtimoiy hayotning barcha sohasiga oid ajdodlarimizning ko'nikmalarini, yutuqlari va tajribalarini mujassam etadi. Shuning bilan birga, yoshlarda ajdodlarimiz merosiga nisbatan hurmat hissini uyg'otib, bu merosini yangicha talqin qilib, zamon talablari asosida boyitish va kelajak avlodga yetkazish zaruratini uyg'otadi.

Sharqning ulug' allomalari farzand tarbiyasiga asosiy masala sifatida qarab, ularning diqqat markazida bo'lgan va bu mavzu yuzasidan qarashlarini o'z asarlarida bayon etganlar. Masalan, mashhur hind masali "Kalila va Dimna", Nizommulkning "Siyosatnoma", Amir Temurning "Temur tuzuklari", Nosir Xusravning "Saodatnoma", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilik", Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit turk", Ahmad Yugnakiyning "Hibat-ul- haqoyiq", Alisher Navoiyning "Mahbub-ul qulub" asarlari, shuningdek, Abulqosim Firdavsiy, Abu Abdullo Rudakiy, Sakkokiy, Abdurahmon Jomiy va shu kabi ko'plab allomalar merosida bola tarbiyasiga oid ilmiy-falsafiy fikrlarni uchratish mumkin.

Xalqimizning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari, xulq-atvorga oid xislatlari XI asrda yashab ijod etgan ulug' olim, mutafakkir Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarlarida keng bayon etilgan. Ushbu asarlarda qadimgi turkiy xalqlar tili tarkibiga kirgan so'zlarning arabcha izohli tarjimai berilgan. Bu kitobni qadimiy turkiy tilning izohli lug'ati deyish mumkin. "Devon"dagi qo'shiqlarda tabiat manzaralari, ov va jang tasvirlari, sevgi-muhabat tuyg'ulari, o'git-nasihatlar o'z ifodasini topgan. She'rlarda ilm olishning qadri, bilimli, donishmand kishilarni hurmat qilish, mehmondo'stlik, xushxulqlik, mardlik, jasurlikni targ'ib etuvchi, o'z manfaatini ko'zlagan molparast, baxil, ochko'z, do'stiga va xalqiga xiyonat kabi salbiy tomonlarini qoralaydigan she'rlar ko'p uchraydi. Bunday she'rlar turkiy xalqlar qadim-qadimlardan boshlab inson shaxsini shakllantirishda ta'lim-tarbiyaga katta e'tibor berganligini ko'rsatadi. Ayniqsa, pand-nasihatlarda asosiy o'rinni ilm olishga undash, uning foydalari, ilm ahlini hurmat qilish to'g'risidagi fikrlar egallaydi. Yoshlarni ilmi kishilarga yaqinlashish, ulardan o'gitlar olishni maslahat beraladi.

O'zbekistonda erkin huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish yo'lidan ildam qadamlar bilan odimlar ekanmiz, bu jarayon uzoq yillarni talab qilishini e'tiborga olsak, bunday ulkan vazifa yosh avlod zimmasiga tushishi aniq. Shuning uchun ham yoshlarni ta'lim-tarbiyasi, ularni zamonaviy, dunyoviy bilimlarni egallashlari uchun yaxshi sharoit yaratish masalasiga Yurtboshimiz doimiy e'tibor qaratib kelmoqdalar. Yoshlarimizning hayot tarzini yaxshilash, salomatligi, bilim olish, kasbhunar egallashi bilan bog'liq ulkan imkoniyat va imtiyozlar yaratish borasida hukumatimiz

tomonidan juda ko'p qonunlar, qarorlar va farmonlar qabul qilinib davlat dasturlari ishlab chiqilmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, har tomonlama yetuk barkomol avlodni tarbiyalashda ma'naviy meros eng muhim omillardan bo'lib hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda bugungi kunda barkomol yosh avlodni tarbiyalashda milliy ma'naviy merosdan foydalanish o'z ahamiyatini yo'qotmay balki, tarbiya jarayonida undan foydalanish imkoniyatini kuchaytmoqda. Bunday g'oyalarning mustaqil O'zbekiston yoshlarini ma'naviy kamolga yetkazishida ahamiyati katta.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. – T.: "O'zbekiston", 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: "O'zbekiston". – 2017.–
- Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: "O'zbekiston", 2018.
- Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: «Ma'naviyat», 2008.
6. Mamashokirov S. va boshqalar. O'zbekistonda yangi jamiyat qurilishining g'oyaviy-mafkuraviy masalalari. (O'quv-uslubiy qo'llanma). – T.: 2004.
7. Otamurodov Gloaballashuv va milliy ma'naviy xavsizliklik. – T.: «O'zbekiston», 2013.